

HUSNBUZAR KASALLIGINI DAVOLASHDA RETIN-A DORI VOSITASI BILAN RUX PREPARATINING BIRGA QO'LLASHDAGI SAMARADORLIK

Raxmatov O. B.

Buxoro Davlat Tibbiyot institute

Xayitova N. D.

Buxoro Davlat Tibbiyot institute

Husnbuzar kasalligi asosan soch follikulalarning mexanik zararlanishi va normadan ortiq yog' bezlarining sekretyalanishi oqibatida paydo bo'luvchi kasallikdir. Husnbuzar kasalligi papula va pustula ko'rinishidagi toshmalarning yuz, ko'krak, bel qismlarda toshishi bilan xarakterlanadi. Husnbuzar kasalligi ikki ko'rinishda bo'ladi yallig'lanuvchi va yallig'lanmaydigan. Yallig'lanmaydigan o'choqlar ochiq komedon (qora nuqtalar) va yopiq komedon (oq husnbuzar) lar ko'rinishida. "Retin -A" dori vositasi komedonlar va teridagi soch xaltasi og'izlarning bekilib qolishini oldini oladigan vositalardan biridir. Retinoidlarning ikkinchi avlodiga kiruvchi bu vositaning 0,025-0,01% malhami yog'li yuzlarga qo'l keladi. 0,1; 0,05; 0,025 % li malhamlari esa quruq yuzlarda qo'llash yaxshi natija beradi. Malhamning 0,04-0,1% lisi "Retin-A" mikro ko'rinishida bo'lib, terini kam ta'sirlash xususiyatiga ega . Rux elementi inson organizmida saqlanmaydigan mikroelement hisoblanib, insonlar ularni tashqi muhitdan oziq -ovqatlar orqali orgazimlariga kiritishadi. Shu sababi insonlar rux elementiga boy bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilishlari zarur. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson terisining yuza qavatida joylashgan Cutibacterium acnes yoki Propionibacterium acneslarni yo'qotish xususiyatiga ruxli malhamlar ega hisoblanadi. Ruxli malhamni antibiotiklar bilan birga qo'lash ham samarali natijani beradi. Rux inson terisida mavjud yog' sekretyasini ham normallashtiradi. Bundan tashqari androgen gormonlarni normallashtirishi hisobiga teridagi turli xil toshmalarni oldini oladi. Ruxli malhamni yuz terisiga qo'llasak yuz terimizdagi yallig'lanish jaroyini pasaytirishga ham yordam beradi. Husnbuzar kasalligining profilaktikasida rux preparatini uzoq muddat qo'lash orqali ,o'smir yoshlar sezilarli natijalarga erishdilar .

Maqsad. Husnbuzar kasalligida Retin-A dori vositasi bilab Rux dori vositasini birgalikda qo'llash orqali yuqori natijaga erishish.

Kalit so'zlar: Husnbuzar, Retin-A, Rux dori vositasi

Material va uslublar

Tekshiruvlarimizni Buxoro viloyatida yashovchi 16 yoshdan 21 yoshgacha bo'lgan 18 nafar ayol - qizlarimizda olib bordik. 18 nafar bemorlarimizga Retin-A malhami hamda Rux dori

vositasini husunbuzar kasalligini davolashdagi o'rni, ulardan qanday foydalanishlari haqidagi tushunchani berdik. 18 nafar bemorlarimiz Retin-A dori vositasini bir kunda bir marotaba bir oy davomida yuz terisiga yupqa qoplam qilib surtishadi (ko'z va lablarni himoyalangan holatda) va Rux preparatini bir kunda ikki mahal bir oy davomida peroral iste'mol qilishadi.

Natijalar va ularning muhokamasi

18 nafar bemorlarimiz, yuqorida aytilgan dori vositalardan foydalanilganlaridan so'ng quyidagi natijalarga erishdilar: tugunchali husnbuzar shakli $6\pm 0,2$ kunlarda yaxshilangan bo'lsa, tugunli husnbuzar shakli esa $24\pm 0,2$ pustulyoz husnbuzar $17\pm 0,6$ va hayzli husnbuzar shakli $14\pm 0,3$ yaxshilanish kunlariga tog'ri keladi. Nojo'ya ta'sirlar va asoratlari bo'lmadi.

Xulosa

Kuzatuvimiz davomida olingan natijalarga ko'ra Husnbuzar kasalligida "Retin-A" dori vositasini Rux dori vositasi bilan birga qo'llash tez va samarali natija beradi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Danby F.W. Nutrition and acne // Clin. Dermatol.2010.Vol.28(6)/P.598-604.
2. Dumont-Wallon G., Dreno B. Specificity of acne in women older than 25 years // Presse Med 2008. Vol.37. P.585-591.
3. Jappe U., Igham E., Henwood J., Holland K.T. Propionibacterium acne and inflammation in acne: P acne has T-cell mitogenic activity // Br.J dermatol.2002.Vol.325.P.475-479.
4. Webster G.F. Acne vulgaris // Br.J. Dermatol.2002 Vol.325.P.425-479
5. Rivers Jk, Frederiksen PC, Dibdin C: A prevalence survey of dermatoses in the Australian neonate. J Am Acad Dermatol 1190;23:77-81.
6. Thomas P. Habif, MD Professor. James L. Campbell-Jr, MD MS Professor. Kojenniye bolezni . Diagnostika i lecheniye. 110-118.
7. Axmedovich, F. M., & Amonovich, D. Y. (2021). Clinical Criteria for the Manifestation of Atopic Dermatitis in Schoolchildren, Depending on Age. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MEDICAL AND NATURAL SCIENCES, 2(5), 335-339.